

## ORZULAR DIYORIGA SAFAR

Tursunbayeva Xusnora

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika

Universiteti II kurs magistranti



**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Islom dinining markazi bo'lmish Makka va Madinaga tashrif buyurgan yevropalik tadqiqotchi Richard Byortoning sayohat va sarguzashtlari haqida ma'lumotlar aks etgan

**Kalit so'zlar:** Makka, Haj, Sir Richard Frensis Byorton, "The Piligrimage to Al-Madinah and Meccah"

### Asosiy qism:



Islom dinining eng muqaddas Makka shahri Saudiya Arabistoniga qirolligida joylashgan. Musulmonlar uchun muqaddas shahar sifatida uning ahamiyati Islom dinining asoschisi Muhammad (s.a.v)ning tug'ilgan joyi bo'lib qoladi. Muhammad (s.a.v) 571- milodiy yilda Jidda shahrining Qizil dengiz bandargohidan taxminan 50km uzoqlikda joylashgan Makka shahrida tug'ilgan. 622-yilda hijrat sabab Madinaga ketgan.

Islomning asosiy tamoyillari va farzidan bo'lmish Haj amali, ziyorati ushbu Makka shahrida bo'ladi. Hajga boradigan islomiy taqvimning so'nggi oylarida musulmonlar Makkaga keladi. Saudiya hukumati tomonidan tashrif buyuruvchilarning bu oqimi katta logistic rejalshtirishni talab qiladi. Shahardagi mehmonxona va boshqa xizmatlar hojilarning chegarasi bo'ylab cho'ziladi.

Saudiya Arabistoniga sayyoohlarga yopiq bo'lib, Makkadagi barcha musulmon bo'limganlar uchun cheklolvar mavjud. Yo'l bloklari shaharga olib boradigan yo'llar bo'ylab joylashgan. Makkai mukarramaga tashrif buyurgan eng mashhur voqeа 1853-yilda britaniyalik tadqiqotchi Sir Richard Frensis Byortoning tashrifi edi. Sarguzashtlarga bo'lgan muhabbatidan kelib chiqqan holda, Byorton hududni o'rganish uchun Qirollik geografig jamiyatidan ruxsat oldi. Ost-Indiya kompaniyasi rahbarlaridan armiyani tark etish uchun ham ruxsat oldi. Sind yarimorolida o'tkazgan vaqtida u Makka va Madinaga borishga puxta tayyorgarlik ko'ra boshlagandi. Uning Hindistonda o'tkazgan 7 yillik vaqtini musulmon xalqining urf-



odati va hatti-harakatlari haqidagi bilimlarini kengaytirdi. Aynan shu sayohat 1853-yilda uni mashhur qildi. U buni Sind musulmonlari orasida yurganida rejalashtirgan, qattiq sinovga astoydil tayyorlik ko'rgan edi. Musulmonga o'xshab qolish uchun u tashqi qiyofasini o'zgartirdi va hattoki sunnat qildi. Byorton o'zining shaxsini yashirish yo'l va usullarini, jumladan patanlar ya'ni zamonaviy pashtunlar tomonidan qo'llaniladigan nutqning aholi qulog'iga xos bo'limgan nutqini o'zlashtirdi. Byortoning Makkaga boradigan yo'li xavfli edi, hattoki u qaroqchilar hujumiga ham uchragandi. Haj uni Hoji unvonini olishga va yashil salsa kiyishga musharraf qildi. Amalga oshirgan sayohati haqidagi hisobotini **"The Pilgrimage to Al-Madinah and Meccah"** asarida yoritdi. Byorton Makka va Madinaga yashirincha kirib, tiriklayin qaytib kelgan birinchi yevropalik emas edi, ammo uning zamonidagi u kabi Makkaga qizizqsan tarixchilarning asarlari va sarguzashtlari uning asari va sarguzashtlari singari qiziqarli bo'lmasa kerak. Uning "Al-Makka va Madinaga ziyorat" asari juda mashhur bo'lib, bu asarda u Islom dinidagi urf-odatlar, ibodatlarga ham boshqa dinlar kabi hurmatda, al-Madina xalqiga, ularning e'tiqodiga hurmat ko'rsatilishi kerak deb hisoblardi.



**Adabiyotlar ro'yhati:**

1. A.Hasanov "Islom tarixi"
2. <http://historicaldis.ru>
3. [www.livelib.ru](http://www.livelib.ru)
4. [brittanica.com](http://brittanica.com)

